**Konteyneri bo'lgan korxona (tashkilot, muassasalar na yuridik shaxslar) uchun qattik maishiy chiqindilarni (Q.M.Ch) ni olib chiqib ketish bo'yicha xizmat**
ko'rsatish

**SHARTNOMASI №** 102302

2022 yil «5» 01 Toshkent shaxri

Bundan buyon matnda «Ijrochi» deb ataluvchi korxona to'g'risidagi nizom asosida faoliyat olib boruvchi ATF Olmazor - Maxsustrans avtokorxonasi nomidan rahbar Sagdullaev J.H. bir tomondan, va bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi Olmazor tumani Xalq ta'limi bo'limi nomidan rahbar Y.N. Shadiyeva ikkinchi tomondan, kuyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

**1.Shartnoma mazmuni**

1.1. «Buyurtmachi» topshiradi, «Ijrochi» esa Olmazor tumani manzildan bir oyda_____marotaba______dona (770 l.,1100 l., 20 m2)chiqindi saqlash qutilardagi QMCh (qattiq maishiy chiqindilar)ni tashib chiqib ketish ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi, "Buyurtmachi" zsa xizmat to'lovlarni go'lab borishi shart.

1.2. Q.M.Ch.larning umumiy hajmi bir oyga 49,24 m3, bir yilga 593,51 m3 tashkil etadi.

**2.Hisob-kitob qilish tartibi**

2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytida amaldagi narx har bir m3 QMCh uchun **53986-56** sum, QQS (15%) bilan **62084-54** so'm.

2.2 Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lov summasi 36 847 549,63 so'mni tashkil etadi,shundan, byudjet mablaglari hisobidan 21 847 549,63 so'm, byudjetdan tashkari mablag'lar hisobidan 15 000 000 so'm.

2.3. Har oyning 10 sanasigacha keyingi oyning rejaviy ish hajmiga (byudjet tashkilotlarida shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab oldindan 100 foiz miqdorida to'lovlarni amalga oshirish.

2.4. Har oyning 10 sanasigacha o'tgan hisobot oy uchun ko'rsatilgan xizmat to'lovlarini "Ijrochi"ning xisob rakamiga bajarilgan ish dalolatnomasi asosida to'liq to'lab berish.

**3.«Buyurtmachi» majburiyatlari**

3.1. Qatgiq mayshiy chiqindilarni iig'ilish hajmi va olib chiqish muddatiga binoan kerakli beg'araz foydalanish va chiqindilarni vaqtinchalik saqlash.

3.2. QMCh tashlanadigan qutilarni qurilish va yirik hajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha, ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida bir marotabalik shartnoma tuzish.

71-248-51-70

- Izoh: Byudjet mablag'lari bo'yicha yillik xarajatlar smetasi tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'gkazilgunga qadar, vaqtinchalik xarajatlar smetalarida belgilangan mablag'lar doirasidagi summa va miqdorlar ko'rsatiladi.

3.3. Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi, tọplash qurilmalariga avtomashinalarni rkin qinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz holda saqlashni ta'minlash.
3.4. QMChni ọz vaqtida tashib chiqib ketilishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yọnalish jadvali buzilgan xollarda telefoniga telefonogramma yọllash orqali «Ijrochi»ga ma'lumot berish.
3.5. Bajarilgan ishning hajmini "Ijrochi" ning hujjatlarida "Bu rtmachi" vakilining imzosi va korxona muhri bilan tasdiqiab borish.
3.6. Xar oyning boshida ọttan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini kọrsatuvchi xisob dalolatnomasini rasmiylashtirish.

## 4.«Ijrochi» ning majburiyatlari

4.1.Alohida shartnoma asosida "Ijrochi" "Buyurtmachiga chiqindi yiğish qutilarni beğaraz foydalanish uchun topshiradi.
4.2.«Buyurtmachi» hududidan QMCh tashlanadigan maxsus qutilardan maxsus avtomashinlarda jadval asosida chiqindilarni olib chiqib ketilishini ta'minlash.
4.3.«Buyurtmachi»ning bu rtmasiga asosai qọshimcha tọlov xisobiga qurilish va yirik hajmdagi chiqindilarni, shox-shabbalarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.
4.4.«Buyurtmachi» tomonidan QMChni ọz vaqtida olib chiqib ketilmagani tọğrisida ma'lumot kelib tushgandan sọng 1 kun muddat ichida «Buyurtmachi» hududidan chiqindilarni odib chiqib ketish.
4.5. Biriktirilgan yọnalishda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

## 5. Tomonlariing javobgarliklari

5.1. «Ijrochi» tomonidan QMCh kelishilgan vaqtda olinmagan taqdirda «Bu rtmachi» telefon orqali «Ijrochi»ning vakilini dalolatnoma tuzish uchun chaqirtirishi lozim.
Agar "Ijrochi" ushbu xabarnomadan sọng ọz vakilini dalolatnoma tuzish uchun bormasa, ëki 24 soat ichida QMCh olib chiqib ketilmasa, "Bu rtmachi" jamoatchilik ishtirokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada kọrsatilgan jazo turlarini qọllash uchun asos hisoblanadi.
5.2."Ijrochi" ọz vaktida QMCh olib chikib ketilmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida xar bir kun uchun olib chiqib ketmagan QMCh hajmi qiymatidan 0,5 % miqdorida, lekin shartnoma umumiy ish summasining 50% dan oshmagan mikdorda "Buyurtmachi"ga penya tọlaydi.
5.3. «Bu rtmachi» shartnomada kọrsatilgan muddatdan kechiktirilgan xar bir kun uchun belgilangan muddatda tọlanmagan summaning 0,4 % mikdorida, lekin shartnoma umumiy summasining 50 % dan oshmagan miqdorda «Ijrochi» ga pen tọlaydi.
5.4.Jarima va pen tọlash tomonlarni shartnoma shartlarini bajarishdan ozod tmaydi.

## 6. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida kiritiladigan ogohlantirish bandi

6.1.SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslari, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi hamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

6.2.Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ch telefon orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.
6.3.Mazkur talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

## 7.Nizolarni hal qilish tartibi.

7.1.Shartnomani bajarish paytida yuzaga kelgan nizolarni tomonlarning ọzaro muzokaralari orqali hal qilinishi mumkin bọlmagan hollarda, ushbu nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal qilinadi.
7.2.Tomonlarning manzili, korxona nomi, hisob raqami ọzgargan taqdirda hamda QMCh hajmi ọzgarishiga ta'sir etuvchi omillar paydo bọlganda bir tomon ikkinchi tomonga 10 kun ichida ëzma ma'lumot beradi.
7.3.Shartnomashng 1.2. bandida kọrsatilgan QMCh ning hajmi "Buyurtmaching aybi bilan taqdim etilmasa, ëki "Buyurtmachi" "Ijrochining yuk tashish hujjatlarini rasmiylashtarishdan bosh tortsa . "Ijrochi" jamoatchilik vakili ishtirokida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolataoma ishning tọliq miqdorda bajarildi deb hisoblanishiga va tọliq miqdorda tọlov amalga oshirilishiga asos bọladi.

## 8.Fors-major.

8.1.Fors-major holati sodir bọlganda tomonlar shartnomada kọrsatilgan majburiyatlardan ozod etiladilar va bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar (Er qimirlashi, suv toshqini, ëňğin chiqishi, harbiy xolatlar yuzaga kelishi, Xukumat qarorlari, korxonaning tugatilishi, moliyaviy qiyinchiliklar, xom ashë tanqisligi va boshqa xolatlar).

## 9.Qọshimcha shartlar

9.1 «Ijrochi» xom-ashë , ëqilği-moylash maxsulotlari va eng kam oylik ish haki mikdori ọzgarishi munosabati bilan belgilangan tartibda bir tomonlama xizmat narxlarini ọzgartirishga haqlidir va u «Buyurtmachi»ni bu toğrida ëzma ravishda ogohlantiradi.

## 10. Shartnomaning muddati

10.1.Ushbu shartnomaning amal qilish muddati «05» 01 2022 yildan «31» 12 2022 yilgacha belgilanadi. Byudjet tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar ğaznachilik bọlinmasida majburiy rọyxatta olingan kundan boshlab kuchga kiradi va amal qilish muddati «31» dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.
10.2.Shartnomani muddatidan oldin tọxtatmoqchi bọlgan tomon ikkinchi tomonni bu xaqida bir oy oldin ëzma ravishda ogohlantiradi, aks holda shartnoma shartlari ọz kuchini yọkotmagan deb hisoblanadi.
10.3 Tomonlar shartnoma muddati tugagandan sọng ëzma ravishda boshqa munosabat bildirmasalar shartnoma bekor qilingunga qadar amalda bọladi.
Byudjetdan mablağ oluvchilar bilan tuzilgan shartnomalar bundan mustasno.
10.4.Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ga bọlgan ikki nusxada tuzilib, bir nusxasi «Buyurtmachi»da, ikkinchi nusxasi esa «Ijrochi»da saqlanadi.

## Taraflarning  yuridik manzilgoxlari va tolov rekvizitlari

| Ijrochi | Buyurtmachi |
| --- | --- |
| “Olmazor - Maxsustrans” ATF<br>Manzil: 100111 Toshkent sh, Olmazor tumani<br>Chuqursoy, 44.<br>Tel.: (71) 248-51-70, 248-18-86<br>STIR: 200 903 001<br>Bank rekvizitlari: “Ipoteka bank”<br>ATIB Shayxontohur filialida<br>2021 0000 0001 1894 8012 x/r<br>MFO: 00425 | ØLMAZØR TUMAN XTB (MAKTAB)<br>TEL: Z46-33-75 NIYAZOVA-19UY<br>X/R: 10002286026280709210007504 7<br>MFO-00014 INN-20229490Z<br>OKED-85200 MARKAZ BANK TSHBBXKKM<br>MÒLİYA VAZİRLİGİ GAZNACHILIGI<br>X/R: 23402000300100001010<br>MFO-00014 INN-201122919 |
| _______________(FISH va imzo) | _______________(FISH va imzo) |

1-tegishli gazna xisobvarağı korsatiladi.
2- tegishli byudjetdan mablağ oluvchining Ğaznachilik bolinmasida ochilgan shaxsiy hisobvarağı (ěki shaxsiy hisob varaqalari) korsatiladi.
3-Byudjetdan mablağ oluvchining ğaznachilikdagi byudjetdan tashqari mablağlari boyicha shaxsiy hisobvarağı ěki banqdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarağı korsatiladi.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: DB44802611

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI
OLMAZOR TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI
100095, Toshkent shahar, Niyozova ko'chasi, 19-uy,
tel.: (998 71) 246-01-41, el.pochta: olmazor.t-yurmarkaz@adliya.uz

**2022-yil 20-yanvar** DB44802611 **Olmazor tumani**

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Olmazor tuman Xalq ta'lim bo'limi va "Olmazor-Maxsustrans" ATF o'rtasida 102302-sonli shartnoma tuzish to'g'risida.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va ishlab chiqilgan sana.

Loyiha Olmazor tuman Xalq ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 20-yanvar kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Olmazor tuman Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti** **J.Mamatqobulov**